

FALSAFIY ANTROPOLOGIYA VA AKSILOGIYADA INSON QADRI MUAMMOSI

Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich-O'zMU doktoratni

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson qadrining falsafiy tahlili uning qadriyat darajasiga ko'tarilgani hamda falsafiy antropologiyada inson ma'naviy hayotining to'fonlarini inson borligi va uning ruhiyati bilan bog'liqligi ko'rsatilgan hamda insondagi ruxiy jarayonni falsafiy tahlil qilib, insonning ichki dunyosidagi holatlari ochib berilgani tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: Yangi O'zbekiston, inson qadri, antropologiya, aksiologiya, ruxiy barkamollik.

ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ФИЛОСОФСКОЙ АНТРОПОЛОГИИ И АКСИОЛОГИИ.

Шодиев Джахангир Джуракулович – докторант УзМУ

Аннотация: В данной статье философский анализ ценности человека поднят на уровень его ценности, а в философской антропологии показано, что потоки духовной жизни человека связаны с существованием человека и его психикой, а путем философского анализа духовный процесс в человеке, выявлены состояния внутреннего мира человека.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, человеческие ценности, антропология, аксиология, духовная зрелость.

THE PROBLEM OF HUMAN VALUES IN PHILOSOPHICAL ANTHROPOLOGY AND AXIOLOGY.

Shodiyev Jahongir Jurakulovich – doctoral student of UzMU

Annotation: In this article, the philosophical analysis of human value has been raised to the level of its value, and in philosophical anthropology, it has been shown that the floods of human spiritual life are connected with human existence and his psyche, and by philosophically analyzing the spiritual process in man, the conditions in the inner world of man have been revealed. done

Key words: New Uzbekistan, human value, anthropology, axiology, spiritual maturity.

Kirish. Inson uchun eng oliy qadriyat uning hayoti va sog'ligidir. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev mamlakatda "amalga oshirilayotgan islohotlarimiz markaziga inson va uning manfaatlarini qo'yib, davlatimiz rivojlanishi strategiyasini shakllantirdilar. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot - islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak"[1], - degan fikrlari ila inson hayoti, ruxiy barkamolligi va uning yashash huquqi asosiy e'tiborda bo'lishi kerakligini qayd qiladi. Demak, respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyatimizda inson, uning hayoti, ruxiy va ma'naviy barkamolligi, ichki imkoniyatlari va qobiliyatini amalga oshirish hamda yashashi uchun g'amxo'rlik yotadi. Mazkur masalani hal etishda, albatta, tarixiy-falsafiy bilimlarning ham ahamiyati kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson haqidagi ta'limotlar dolzarb va ahamiyatli bo'lishi bilan hanuzgacha o'zidan oldingi tarixiy-falsafiy qarashlarni davom ettirib kelmoqda va o'ziga xos yo'nalishda rivojlanmoqda. Inson haqidagi ta'limot va nazariyalarning ijodiy rivojlantirilishi, bir tomondan, uning umumiy rivojlanish xususiyatlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, tarixiy taraqqiyotning nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini aniqlaydi va istiqbollari ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan hozirgi zamon inson haqidagi ta'limotlarni insoniyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarning davomi sifatida ifoda qilish lozim bo'ladi.

Globalashuv sharoitida inson haqidagi ta'limotlar g'oyat xilma-xil, muqobil ta'limotlardan iborat bo'lib, bir tomondan, uni kompleks-tizimli tasavvur qilishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, "ta'limotlar ummonidan" ma'qulini tanlashni taqozo qiladi. Shuning uchun insoniyat oldida qaysi ta'limot ilmiy-nazariy ob'ektiv haqiqatga da'vogarlik qilishi, zamon talabiga javob berishi mumkin, degan savol muqarrar bo'lib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, hozirgi zamon inson haqidagi ta'limotlarning orasida falsafiy antropologiya fani alohida o'rin tutadi. Maks Sheller va nemis falsafiy antropologiyasining boshqa yirik vakillari inson ma'naviy hayotining to'fonlarini inson borligi va uning ruhiyatidan qidirish kerak, deb

ko'rsatadilar. Ular insondagi ruxiy jarayonni falsafiy tahlil qilib, insonning ichki dunyosidagi holatlarini ochib berishdi. Natijada ularning ta'limotlari XX asr falsafasiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Falsafiy antropologiya fani XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga keldi. Uning asoschisi nemis faylasuflari M. Sheller va uning izdoshlari G.Plesner, E.Gellen, Rotakerlar bo'lib, ular falsafiy antropologiya fanining irratsional va ratsional yondoshuvlariga asos solishdi.

Tahlil va natijalar. Inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni *Homo sapiens* turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun - turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun - madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun - asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo. Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya, antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi va boshqalar) paydo bo'ldi. Ijtimoiy bilim sohasida ham "eski" fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida "yangi" fanlar (aksiologiya, germeneytika) kabilar faoliyat ko'rsatishadi. XX asrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differentsiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu hol falsafaning inson muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb etib qo'yadi.

Insoniyat tarixning o'tgan davrlariga e'tibor qaratsak, qadrli ashorlarning yaratilganligi va ularni davrlar osha avloddan-avlodga takomillashtirilgan holda yetkazish usullari izlanilgan bo'lib, chunki, insoniyatning ilk madaniy taraqqiyot davrlaridan boshlab bugungi rivojlangan zamonda ham ijtimoiy-falsafiy fikr egalarini bu jihatlar qiziqtirib keladi.

Shuningdek, globallashuv jarayonlarining salbiy ta'sirlarini yumshatish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning o'rni va ahamiyatini yoritish, davlat boshqaruvi bilan jamiyatdagi qadriyatlar tizimi o'rtasidagi aloqalarning

namoyon bo'lishiga doir ilmiy tadqiqotlar yaratilishi lozim. Negaki, qadriyatning saqlanib qolishi millatning saqlanib qolishiga to'g'ri proporsionaldir. Shuning uchun ham bu borada avvalo tarixiy tajriba, qolaversa XXI asr ehtiyojlariga tayangan holda, milliy davlatchilik tarixi va taraqqiyoti hamda qadriyatlar sohasi tadrijini o'rganib, eng samarali davlat siyosatiga erishish yo'llarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Jahon ilm-fanida bu kabi mezonlar "qadriyatlar sohasi", "aksiologiya qonuniyatlari" tushunchasi qamroviga kiritib kelinadi. Aslida aksiologiya qonuniyatlari anchayin keng qamrovli

G'arb olimlaridan I.Richards inson qadrini oshirish masalasida ko'plab ijobiy fikrlar bildirganki, ularning ba'zilarini sanab o'tmaslikning imkoni yo'q. Richards fikricha: "olam odamlarsiz quruq bir bo'shliqqa aylanib qoladi, o'zini qadriga yetadigan asosiy subyektidan judo bo'ladi, hech kimga keragi bo'lmaydi; voqeylikni biror shakliga, narsalarga ehtiyojini qondirish uchun harakat qiladigan odamzotgina o'sha narsalarni qadriyatga aylantirishi, ularning qadriga yetishi mumkin; qadriyatni yoqolishi esa unga ehtiyoj qolmaganligi, shu narsani odamlarga keraksiz bo'lib qolganini anglatadi" [2].

Dunyoning nufuzli universitetlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy tadqiqotlarda, G'arb va Sharq madaniyati qadriyatlar transformatsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga, aksiologik qonunlar nazariyasi va amaliyotining yangilanishi uning ratsional va konstruktiv jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shuning bilan bir qatorda, zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab-avaylash, aksiologiya sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarida kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, aksiologik jarayonlarni muttasil ilmiy monitoring va prognozlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillar davomida milliy va umuminsoniy

qadriyatlar talabiga mos jamiyat qurish muhim hisoblanadi. Bu borada “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”[3]. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining negizida “Inson qadri uchun” degan ulug‘vor g‘oyani amalga oshirilishi, shuningdek, 2022-yilni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”, 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishi bunda asosan vatanimizda yashayotgan har bir inson qadrini ulug‘lash, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Ayni paytda, O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tishining aksiologik masalalari hamda uning bugungi amaliyot bilan uzviy bog‘liqlik dialektikasini chuqur va har tomonlama o‘rganish vazifalari ham dolzarblashib bormoqda [3].

A.Meynong esa qadriyatlar xususida ko‘plab izlanishlar olib borgan va u inson his-tuyg‘ulari qadriyatlarni shakllanishiga asos bo‘la oladi, degan xulosaga kelgan. Olimning fikricha, “insonda yaxshilik tuyg‘usi kuchli bo‘lsa - yaxshilik, nafosat tuyg‘usi ustun bo‘lsa - go‘zallik, odillikdan - adolat, yovuzlik tuyg‘usidan jinoyat va razolat tug‘ulishi mumkin”[4].

G‘arb olimlaridan I.Richards inson qadrini oshirish masalasida ko‘plab ijobiy fikrlar bildirganki, ularning ba’zilarini sanab o‘tmaslikning imkoni yo‘q. Richards fikricha: “olam odamlarsiz quruq bir bo‘shliqqa aylanib qoladi, o‘zini qadriga yetadigan asosiy subyektidan judo bo‘ladi, hech kimga keragi bo‘lmaydi; voqeylikni biror shakliga, narsalarga ehtiyojini qondirish uchun harakat qiladigan odamzotgina o‘sha narsalarni qadriyatga aylantirishi, ularning qadriga yetishi mumkin; qadriyatni yoqolishi esa unga ehtiyoj qolmaganligi, shu narsani odamlarga keraksiz bo‘lib qolganini anglatadi”[5].

R.Uilyams fikricha, “qadriyat qiziqish, ehtiyoj, talablar, ma’naviy burch, nafosat tuyg‘usi va boshqalar bilan bog‘liq vujudga keladigan holatdir. U kishining hayot yo‘lini, faoliyat mezonini, voqealarga nisbatan o‘z pozitsiyasini tanlab olayotganida muayyan ta’sir ko‘rsatadigan tushunchadir”[6].

Qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni shundayki, bunday sharoitda jamiyatning tub burilish bosqichlarida, masalan Yangi O‘zbekistonimizning rivojidagi ustivor vazifalar hozirgi avlod umrining mazmuniga aylanadi.

Tarixiy tajriba mustaqillikni qo‘lga kiritish jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilish, inson qadrini oshirish asosida turli ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish borasidagi muhim qadam ekanligini isbotlaydi. Mustaqillik oddiy kishi va alohida shaxs ushuni fikr, matbuot, mulk, vijdon, savdo-sotiq va demokratik asosga quriladigan yashash erkinligikabi umuminsoniy ideal qadriyatlardan biridir. U bugungi Yangi O‘zbekistonda ideal qadriyatdan amaliyotga aylandi. Mazkur amaliyotni umuminsoniy, milliy, shaxsiy va boshqa jihatlar bilan mazmunan to‘ldirish, demokratik hayot tarzini vujudga keltirish, har bir shaxsning eng buyuk ijtimoiy qadriyat ekanligini hisobga olib, uni kamoloti, qobiliyati va iste’dodini namoyon qilishi ushuni to‘liq imkoniyatlar yaratish borasida nihoyatda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etilganidek, ushbu taraqqiyot strategiyasi har biri mamlakatimizning qadriyatlar sohasi va aksiologik qonunlariga katta ta’sir ko‘rsatadigan yetti yo‘nalishdan iborat.

Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘z sohasida qadriyatlar omiliga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi va aksincha, undan muayyan tarzda ta’sirlanadi ham. Masalan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishi islohotlarni yangi pog‘onaga ko‘tarish borasidagi vazifalar, bevosita Harakatlar strategiyasining birinchi yo‘nalishi doirasida-“Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish”[7] borasida amalga oshirilgan ishlarning uzviy davomi sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Zero, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotimizga tatbiq etilishi orqali “Yangi O‘zbekiston-xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasi va “Inson qadri uchun”[7] degan ustivor tamoyil to‘laqonli ro‘yobga chiqariladi.

Jumladan, joylardagi mahalliy hokimiyatlar vakolatlarini yanada kengaytirish, davlat markaziy idoralari vazifalarining bir qismini markazdan

hududlarga o'tkazish nazarda tutilmoqda. Bu esa o'tgan besh yil mobaynida "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak"[8] degan mazmundagi ishlarning samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Endilikda har bir maqsad va vazifani amalga oshirishda o'tgan davrda erishilgan yutuqlargina emas, balki ayrim kamchiliklardan ham to'g'ri xulosa chiqariladi.

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi xalq faravonligini yanada oshirish, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Bu borada "Davlat-insonlar uchun" degan ezgu g'oya hayotimizda izchil qaror topib, ko'p millatli xalqimiz tinch va osuda hayot kechiryapti. Har bir O'zbekistonda yashayotgan fuqaro yurt tinchligi, inson qadri ulug'langan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatini safarbar etishi lozim.

Yangi O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlar darajasidagi taraqqiy etgan demokratik mamlakatni, jumladan yangi aksiologik makonni barpo etish zarurati keyingi yillarda xalqimiz hayotidagi hamma soha va yo'nalishlar qatori qadriyatlar sohasidagi olib borilayotgan islohotlar uchun ham boshlang'ich nuqta, tamal toshi bo'lib xizmat qildi. Uzluksiz asosda olib borilayotgan islohotlar davlatimizning barqaror rivojlanishi bilan birga, qadriyatlar rivojining izchil sur'atlarini ta'minlamoqda. Bu jihatdan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi jamiyat hayotining barcha sohalarini yangilanish va demokratlashtirishga qaratilgan muhim xujjatdir.

Albatta, ilmiy tadqiqotimizga asos bo'lgan mavzu va unga bog'liq masalalarni tahlil qilishda aksiologiya qonunlariga doir barcha jihatlarni qamrab olishning iloji yo'q. Shuni hisobga olgan holda, tadqiqot mavzusi bo'yicha izlanishlarni davom ettirish, qadriyatlar transformatsiyasi sohasidagi samaradorlikni ta'minlash borasida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi maqsadlari doirasidagi islohot va o'zgarishlar monitoringini tizimli tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent, O'zbekiston, 2017. -B. 105-106.

2. Nazarov Q., To‘xtayev X. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. Darslik. - Toshkent: Universitet, 2022. - B. 61.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 1- tom. – B. 88-89.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/31/2022-year/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va 6. O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.11.2017 yildagi PF-4749-sonli “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. <https://lex.uz/acts/-3107036>
7. [https://constitution.uz/oz/pages/broshura Inson qadri uchun](https://constitution.uz/oz/pages/broshura_Inson_qadri_uchun)
8. <https://kun.uz/uz/news/2017/08/31/halk-davlat-idoralariga-emas-balki-davlat-organlari-halkimizga-hizmat-kilisi-kerak-prezident-nutki>